

HUQUQ NORMALARINI SHARHLASH TURLARI HAMDA ULARNING SHARHLASH JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Parxatov Mardonbek

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Huquq normalarini mazmunini aniq tushunib olish, to‘g‘ri talqin etish, huquqbuzarliklar oldini olish uchun albatta ularni sharhlash lozim. Sharhlash orqali huquq normalarining o‘ziga xos xususiyatlari, jihatlari aniqlanadi. Huquq normalarini sharhlashda asosiy maqsad uning mazmunini to‘liq tushunish va to‘g‘ri tatbiq etilishi hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad fuqarolar huquqlarini himoya qilish va davlat organlarini faoliyati shaffofligini ta’minlashdir.

Huquq normalari sharhlashda turlarga ikki jihat asosida ajratiladi: hajmiga hamda subyektlariga ko‘ra sharhlash⁷. E.A.Berezina huquqni sharhlashni an’anaviy turlari bilan bir qatorda, sharhlash maqsadi, obykti, huquqiy tartibga solish mexanizmiga ko‘ra turlarga bo‘lish lozimligini qayd etib o‘tgan⁸.

Olimlar tomonidan huquq normalarini hajmi bo‘yicha sharhlash uch turga: tom ma’noda (aynan yoki adekvat), cheklangan va kengaytirilgan turlarga bo‘linishi qayd etilgan.

1.Huquq normalarini tom ma’noda sharhlash deganda, tatbiq etilayotgan huquq yaratuvchi idoraning irodasi bilan uning huquqiy normada so‘zda ifodalangan irodasi bir bo‘lganda qo‘llanadigan izohlash tushuniladi. N.N.Matuzov fikricha, huquqio tom ma’noda sharhlash huquqiy normaning og‘zaki ifodasi va semantik mazmuni bir-biriga to‘g‘ri keladigan, boshqacha qilib aytganda, qonunning matni va uning ruhi doirasi teng bo‘lgan holatda amalga oshadi⁹.

⁷ Алексеев.С.С. Теория права и государства. - М., 1999. -С.131

⁸ Березина. И.А. Толкование договора как вид юридического толкования. Автореф..дис. ... канд.юрид.наук. - Екатеринбург, 2001. -С.7.

⁹ Матузов, Н.Н. Теория государства и права: Курс лекций / Н.Н.Матузов, А.В.Малько – М.: Юристъ,

Ushbu sharhlar turi yuridik adabiyotlarda aynan yoki adekvat sharhlar deb ham qayd etiladi. Soʻzni tom maʼnoda sharhlariga misol qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasini koʻrsatish mumkin. Unda shunday deyilgan: “Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolikorlatiladi. Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega boʻlganligidan qatʼiy nazar, hamma uchun tengdir.

2.Cheklangan sharhlar. Bunda huquq normasining soʻzda ifodalangan va rasmiylashtirilgan maʼnosi uning mantiqiy maʼnosi va mazmunidan keng boʻlgan hollarda qoʻllaniladi. Ayrim hollarda huquq normasining mazmuniuning matndagi ifodasidan torroq boʻlishi mumkin. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasida: “ Oʻzbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs Oʻzbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas “ deb qayd etilgan. Bu yerda Oʻzbekiston xalqi nomidan faoliyat olib boradigan subyektlar doirasi Respublika Oliy Majlis va Prezidenti ish olib borishi mumkin deb cheklab qoʻyilgan. Shu cheklashni asoslash uchun ushbu normada turli xil tashkilotlar, mansabdor shaxslar va davlat organlari Oʻzbekiston xalqi nomidan ish olib borishi mumkin emasligi qayd etilgan.

3.Kengaytirilgan sharhlar. Bunda huquq normasi mohiyati va mazmuni, unda koʻzda tutilganidan kengroq holatda sharhlanadi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida “Sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga boʻysunadilar”, deyilgan. Bunda qoʻllanilgan “sudya” iborasining haqiqiy maʼnosi keng tushuniladi. Qonun chiqaruvchi idora “sudya” iborasi orqali faqat sudyalarni emas, shu bilan birga xalq maslahatchilarini ham mustaqilligini va faqat qonunga boʻysunishini nazarda tutgan¹⁰.

Huquq normalarini subyektlariga koʻra sharhlar rasmiy va norasmiy turlarga ajratiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan

2001 – C. 357.

¹⁰ Oʻz.R. IIV Akademiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. 526-b.

sharhlash rasmiy sharhlash hisoblanadi. Professor Sh.Saydullayev fikricha, sharhlashning bunday turi yuridik ahamiyatga ega bo‘ladi va tegishli huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Mazkur sharhlash, o‘z navbatida, huquqni amalga oshiruvchilarni huquq normalarini bir xil ma’nodan tushunish va aynan qo‘llashga yo‘naltiradi¹¹.

Huquq normalarini rasmiy sharhlash o‘z navbatida normativ va kazual sharhlashga bo‘linadi¹². Normativ sharhlashda, uning natijalari huquqni qo‘llashda majburiy xarakterga ega hisoblanadi. Normativ sharhlash yangi huquqiy normalarni vujudga keltirmaydi, balki harakatdagi huquqiy normalarning mazmunini tushuntiradi. Normativ sharhlash natijalari huquqni qo‘llash jarayonida umumiy qoida sifatida joriy etiladi, shu bilan birgalikda huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining keng doirasiga daxldor hisoblanadi.

Huquqiy normalarni sharhlash subyektga ko‘ra ikki turga: rasmiy va norasmiy turlarga bo‘linadi. Yuqorida huquq normalarini rasmiy sharhlashni atroflicha tahlil qildik. Undan keyin norasmiy sharhlashga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Norasmiy sharhlashda sharhlash jarayonida vakolatli davlat organlari emas, aksincha sharhlash maxsus vakolat berilmagan organlar yoki shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, sharhlash jarayoni oqibati majburiy xarakterga ega emas.

A.S.Pigolkin fikricha, Norasmiy sharhlash qonun ustuvorligi mazmunini ochib berish uchun rasmiy vakolatlariga ega bo‘lmagan subyektlar tomonidan beriladi: ommaviy tashkilotlar, ilmiy va o‘quv muassasalari, amaliyotchilar va boshqalar. Uning muhim xususiyati shundaki, u qonuniy kuchga ega emas va hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi¹³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish joizki kelajakda yurtimizda huquq normalarini sharhlash faoliyatini yanada takomillashtirish lozim. Birinchidan, sharhlovchi subyektlarning huquq normalarini sharhlashda yuridik va lingvistik bilimlarning uyg‘unligini ta’minlash; ikkinchidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini takomillashtirish va OAV bilan hamkorligini kuchaytirish; uchinchidan huquq normalarini sharhlash faoliyati bo‘yicha yangi mexanizmlarni joriy etish va xorijiy tajribani o‘rganish maqsadga muvofiq.

¹¹ Saydullayev Sh. Huquqni sharhlash. . –T., : TDYU, 2019. 13-b

¹² Коркунов, Н.М. Общая теории права: Курс лекций / Н.М. Коркунов // М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН). - 2010. – С. 223.

¹³ А.С. Пиголкин .Толкование норм права и правотворчество: проблемы соотношения.// Закон: создание и толкование/ – М,1998. – С. 74-75.